

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

*Jo'rayeva Maftunaxon Dilshodbek qizi
Andijon davlat universiteti tayanch (PhD) doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik va psixologik jihatdan tayyorlash, boshlang'ich sinflarda olib boriladigan tarbiya darslarini samarali tashkil etish omillari va mavzularni hayotiy hamda amaliy jihatdan ahamiyatini atroflicha ochib berish uchun qo'llaniladigan zamonaviy metod va pedagogik texnologiyalar haqida zaruriy ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu ma'lumotlar oliy ta'limda tahsil olayotgan talaba yoshlar, yangi ish faoliyatini boshlagan o'qituvchi pedagoglar, shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya konsepsiyasi, metodologik asos, pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagog, ta'limiy o'yin, pedagogik imidj, tarbiya nazariyasi.

ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ НАУКИ О ОБРАЗОВАНИИ

*Жўраева Мафтунахон Дилшодбек қизи
докторант Андиганского государственного университета.*

Аннотация. В данной статье рассказывается о современных методах и педагогических технологиях, используемых для педагогической и психологической подготовки будущих учителей начальной школы, факторах эффективной организации учебных занятий, проводимых в начальных классах, а также жизненной и практической значимости темы, дана необходимая информация. , и эта информация включает в себя важную информацию для молодых студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, учителей и педагогов, начинающих новую карьеру, а также учителей начальной школы.

Ключевые слова: Образование, концепция образования, методологическая основа, педагогическая технология, современный педагог, обучающая игра, педагогический образ, теория образования.

TECHNOLOGIES FOR THE PREPARATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS FOR TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION

*Jo'rayeva Maftunaxon Dilshodbek qizi
Ph.D. student of Andijan State University*

Annotation. This article is about the modern methods and pedagogical technologies used for the pedagogical and psychological preparation of future elementary school teachers, the factors of effective organization of educational classes conducted in elementary classes, and the vital and practical importance of topics. the necessary information is given, and this information includes important information for young students studying in higher education, teachers and pedagogues starting a new career; as well as elementary school teachers.

Key words: Education, concept of education, methodological basis, pedagogical technology, modern pedagogue, educational game, pedagogical image, theory of education.

Kirish. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek —Pedagogika fani

tarixida ilk bor —Tarbiya yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli

—Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida —Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan —Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun Tarbiya fani Kontsepsiyasi tasdiqlandi. Qarorga binoan Tarbiya fani amaldagi quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:

- 1) boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan Odobnoma va Vatan tuyg'usi o'quv fanlari;
- 2) yuqori sinflarda o'qitiladigan Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar hamda —Dunyo dinlari tarixi o'quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu Tarbiya fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o'zlashtirishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangi fan —Tarbiya asoslari bo'yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'lim jarayonida Tarbiya fanini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Mazkur fanni o'rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Albatta bu kabi zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish bilan bir qatorda ularga fan doirasida o'tilayotgan mavzularni yana ham chuqurroq anglab yetishlariga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, endi o'sib ulg'ayib kamolga yetayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat, Yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, komil shaxs sifatida kamolga yetkizishda tarbiya darslari eng muhim omillardan hisoblanadi. Shunday ekan tarbiya darslarini samarali tashkil etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mavzularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish, o'tkaziladigan amaliy darslardan o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarishlarini ta'minlashda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari eng avvalo zamon talabiga mos bo'lgan pedagogik imidjdan tortib to'psixologik talablar hamda zamoviy pedagogik texnologiyalar haqida ham nazariy, ham amaliy chuqur bilim, malaka va

ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Zero o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan tarbiya darslarida zamonaviy pedagogic texnologiyalar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'limiy metod va ta'limiy o'yinlardan mavzularga mos holda samarali foydalanish mavzularning nazariy hamda amaliy jihatlarini uyg'unlashuvi hamda o'quvchilar tomonidan mavzularni o'zlashtirilishida samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. «O'zbekiston» NMIU, 2018.486 bet.

2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash. <https://president.uz/oz/lists/view/2>

3. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” 187- son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-son qarori.

6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.

7. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-321-326